

**МИНИСТЕРСТВО ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ, НАУКИ И
ИННОВАЦИЙ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН**

**КАРАКАЛПАКСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ БЕРДАХА**

ФАКУЛЬТЕТ БИОЛОГИИ



МАТЕРИАЛЫ

**МЕЖДУНАРОДНОЙ НАУЧНО-ПРАКТИЧЕСКОЙ КОНФЕРЕНЦИИ
«ИННОВАЦИОННЫЕ ОСНОВЫ СЕЛЬСКОХОЗЯЙСТВЕННЫХ И
БИОЭКОЛОГИЧЕСКИХ ИССЛЕДОВАНИЙ В РЕГИОНЕ ПРИАРАЛЬЯ»
ПОСВЯЩЁННАЯ 80-ЛЕТИЮ ЗАСЛУЖЕННОГО ДЕЯТЕЛЯ НАУКИ
РЕСПУБЛИКИ КАРАКАЛПАКСТАН, ДОКТОРА
СЕЛЬСКОХОЗЯЙСТВЕННЫХ НАУК, ПРОФЕССОРА, АКАДЕМИКА
МАМБЕТНАЗАРОВА БИСЕНБАЯ САТНАЗАРОВИЧА**

17 МАРТА 2023 ГОДА, г. НУКУС

ЧАСТЬ I, III


MATERIALS

**OF THE INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE
"INNOVATIVE FOUNDATIONS OF AGRICULTURAL AND BIOECOLOGICAL
RESEARCH IN THE ARAL REGION" DEDICATED TO THE 80th ANNIVERSARY OF
THE HONORED SCIENTIST OF THE REPUBLIC OF KARAKALPAKSTAN, DOCTOR
OF AGRICULTURAL SCIENCES, PROFESSOR, ACADEMICIAN
MAMBETNAZAROV BISENBAY SATNAZAROVICH**

MARCH 17, 2023, NUKUS

PART I, III

НУКУС - 2023



1-диаграмма. Иқтисодий тармоқларига киритилган инвестициялар ҳажмида қишлоқ хўжалигининг улуши

Диаграмма Қорақалпоғистон Республикаси статистика бошқармаси маълумотлари асосида тузилган.

Мазкур ҳудуд 2020 йилда Ўзбекистондаги жами қишлоқ хўжалиги маҳсулотларининг 3,8 фоизи, пахтанинг 6,6, донли экинларнинг 3,6, буғдойнинг 2,8, картошка, сабзавот ва полиз маҳсулотларининг 2,7, меваларнинг 2,1, гўштнинг 4,4, сутнинг 3,6, пилланинг 3,3 фоизини етиштириб берган. Бу мавжуд имкониятлардан анча паст ҳисобланади. Қорақалпоғистон Ўзбекистон ҳудудидаги қишлоқ хўжалигини ривожлантириш учун катта имкониятларга эга ҳудуд. Жумладан, Ўзбекистон ҳудудидаги суғориладиган ерларнинг 11,9 фоизи, экин ерларнинг 10,4 фоизи,



2-диаграмма. 2020 йилда иқтисодий субъектлар бўйича деҳқончилик, чорвачилик, овчилик ва уларга хизмат кўрсатиш соҳаларига киритилган молиявий ресурсларнинг тақсимланиши

Диаграмма Қорақалпоғистон Республикаси статистика бошқармаси маълумотлари асосида тузилган.

пичанзор ва яйловларнинг 23,0 фоизи айнан тадқиқот ҳудуди улушига тўғри келади.

SUG'ORILADIGAN QUMLI CHO'L TUPROQLARINING AGROKIMYOVIY HOLATI. (JONDOR TUMANI MISOLIDA)

Sattorova M.

Buxoro davlat universiteti

Respublikamiz yer maydonining deyarli 70 foizi cho'l zonasida joylashgan bo'lib, Ustyurt, Qizilqum, Malikcho'l, Sherobod, Qarshi cho'llari va boshqa xududlarni o'z ichiga oladi. Hozirgi kunda respublikamiz qishloq xo'jaligida band maydonlarning eng katta ulushi (yarmidan ortig'i) tabiiy yaylovlar hisoblanib,

ularning qariyb 83 foizi qurg'oqchil mintaqalar (cho'l, adir) hissasiga to'g'ri keladi. Respublikamizda yaylovlar maydoni 20,8 mln. gektarni tashkil etib, shundan 17,4 mln. gektari – cho'l zonasiga to'g'ri keladi.

Cho'l zonasining zonal tuproqlari – sur-qo'ng'ir tusli tuproqlar, taqir va taqirli tuproqlar va qumli cho'l tuproqlaridan iborat [1,2,34].

Cho'l zonasi tuproq qoplami nihoyatda murakkab va o'zining kompleksligi, relyefining murakkabligi, haroratning yuqoriligi (effektiv harorat yig'indisi 4000-5000 °S), shuningdek gumus miqdorining kamligi, yuqori karbonatligi, sho'rlanishning keng tarqalganligi, joylarda sho'rxok va gipslashganligibilan harakterlanadi.

Qumli-cho'l tuproqlar respublikamizning boshqa tuproqlariga nisbatan kam o'rganilgan. Respublikamiz tuproqlariga oid adabiyotlarda ko'pdan buyon ko'rsatilsada, cho'l tumanlarining ichkarisida, qumli to'plamlar, eol yotqiziqlar bilan birgalikda tarqalganligi sababli ularning o'rganishga ahamiyat berilmagan va dehqonchilikda foydalanish borasida hozirgi paytga qadar aniq tavsiyalar berilmagan.

Hozirgi vaqtda qumli-cho'l tuproqlaridan Qashqadaryo, Surxondaryo, Buxoro, Xorazm va boshqa viloyatlarning ayrim xududlarida sug'oriladigan dehqonchilikda foydalanib kelinmoqda. Misol uchun Buxoro viloyatining Qorako'l, Olot, Jondor, Romitan, Peshku, Qorovulbozor tumanlarining qumli-cho'l yangidan o'zlashtirilgan tuproqlarida qishloq xo'jalik ekinlar (paxta, g'alla, beda va boshqa madaniy o'simliklar) yetishtirilmoqda. Qishloq xo'jaligida foydalanilayotgan ushbu tuproqlarni evolyusiyasini, genezisini, xossa va xususiyatlarini, unumdorligini o'rganish dolzarb hisoblanadi.

Buxoro viloyati qo'mli cho'l tuproqlar genezisi, evolyusiyasi, mexanik tarkibi, xossa va xususiyatlari, unumdorligini o'rganish maqsadida 2017-2020 yillar davomida ilmiy - tadqiqot ishlari tuproqshunoslikda qabul qilingan umumiy uslublar asosida olib borilmoqda.

Buxoro viloyati Jondor tumani Fayoz fermer xo'jaligining 488 konturidan tuproq chuquri (razrez) kovlandi va qatlamlardan namunalar olinib, tarkibidagi oziq moddalar tahlil qilindi (1 - jadval).

1 - jadval

Jondor tumani Fayoz fermer xo'jaligining qumli cho'l tuproqlar tarkibidagi oziq moddalar miqdori

Kontur №	Kesma №	Qatlam, sm	Gumus, %	100 g tuproqda /mg		
				P ₂ O ₅	K ₂ O	N-NO ₃
488	1	0-35	0,631	4,60	16,10	0,36
		35-52	0,564	3,30	4,13	0,46
		53-71	0,271	2,18	3,30	0,41
		71-125	0,150	1,30	4,10	0,24
		126-170	0,150	1,18	6,60	0,20

Olingan ma'lumotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, 0-35 sm qatlamda gumus miqdori 0,631 % ni tashkil etgan bo'lsa, qatlam chuqurlashgan sari miqdori kamayib borib, eng pastki qatlam 126-170 sm da 0,150 % ni tashkil etdi. Harakatchan fosfor miqdori bo'yicha olingan ma'ulotlar ham gumus singari kamayib borib, mos ravishda

4,60 va 1,18 mg ni tashkil etdi. Almashinuchan kaliy miqdori 0-35 sm qatlamda 16,10 mg ni tashkil etib, 53-71 sm qatlamgacha kamayib borib (3,30 mg), qatlam chuqurlashgan sari uning miqdori ortib bordi. 126-170 sm qatlamda 6,60 mg ni tashkil etdi. Nitrat shaklidagi azot miqdori 0-35 sm qatlamda 0,36 mg ni tashkil etib, eng yuqori miqdor 35-52 smli qatlamda 0,46 mg ekanligi aniqlandi.

Xulosa qilib aytganda, qo'mli cho'l tuproqlarni unumdorligi juda past bo'lib, tuproq unumdorligini saqlash va uni oshirish uchun tuproqning mexanik tarkibi, umumiy va fizik-mexanik xossalari, suv xossalari, sho'rlanish tipi, darajasi, suvli so'rimda kation va anionlar miqdori, muhit reaksiyasi (rN) kabi tahlillarni o'tkazish va xossa-xususiyatlarini yaxshilash yo'llarini ishlab chiqish, qolaversa qishloq xo'jalik ekinlarini o'g'itlash tizimlarini ishlab chiqishni taqozo etar ekan.

Adabiyotlar:

1. Abduraxmonov N.Yu. Sug'oriladigan va lalmi tuproqlar unumdorligini baholashning ilmiy asoslari. Biologiya fanlari bo'yicha fan doktori (DSc) dissertasiyasi avtoreferati. – Toshkent. – 2019. – 69 b.
2. Artikova H.T., Yunusov R., Istamova M. Sug'oriladigan qumli-cho'l tuproqlari tavsifi. Tuproq unumdorligini oshirish, saqlash, muhofazalash va qayta tiklashdagi muammolar va ilmiy yechimlar. Respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari to'plami. - Buxoro, - 2018 y., -B. 251-252.
3. Qo'ziyev R.Q., Abduraxmanov N.Yu. Sug'oriladigan tuproqlarning evolyusiyasi va unumdorligi.- Toshkent, Navro'z, 2015 y.-212 b.
4. Xoliqulov Sh., Uzoqov P., Boboxo'jayev I. Tuproqshunoslik. Toshkent. "N.Doba" – 2013. – B. 389-424.

КУНГАБОҚАРНИНГ F₃ ДУРАГАЙ БАРГЛАРИДАГИ ВАРИАЦИОН ЎЗГАРУВЧАНЛИГИ

Сейтбаев Р.С., Айтжанов Б.У., Айтжанов У.Е.

Қорақалпоғистон деҳқончилик илмий-тадқиқот институти

Қорақалпоғистон қишлоқ хўжалиги ва агротехнологиялар институти

Ҳозирги кунда инсонларнинг озиқ-овқат маҳсулотларига бўлган талабини ортиши натижасида қишлоқ хўжалик маҳсулотлари ҳажмини янада кўпайтириш ва ишлаб чиқариш, сифатли озиқ-овқат маҳсулотлари билан доимий таъминлаш долзарб муаммолардан ҳисобланади.

Республикамизда кам сув талаб этадиган, сув танқислигига барҳам беришда қурғоқчиликка чидамли қишлоқ хўжалиги экинлари хусусан, кунгабоқар навларини яратиш ўсимликлар генетикаси ва селекциясининг асосий йўналишларидан бири. Кунгабоқар ўсимлиги асосий мойли экинлардан бири ҳисобланади.

В.П.Наконечныйнинг изланишларида кунгабоқар қурғоқчиликка чидамли қишлоқ хўжалик экинларидан бири. Барглари ва поясининг ўсиши, транспирацияни камайтирадиганлиги сабабли, кунгабоқар гуллаш фазаларида иссиқ ва қурғоқчил шароитларга жуда чидамли. Саватнинг шаклланишидан гуллашнинг охиригача бўлган даврда энг кўп намликни (тахминан 60%) сарфлайди. [1].

бизнес ҳам жеке исибилерменликтин нәтийжелилигинин теориялык тийкарлары	127
57. Наурызбаев И.С., Бердикеев Д.Б. От-землик егинлердин топырак өнімдарлығы, суў ҳам дуз режимине тәсири.....	129
58. Отеулиев Ж.Б., Кунназаров У.Б., Досжанов К.Ж., Мәмбетова Г. Қуриган орол денгизи (0 нукта) тупроқларининг агрокимёвий хоссалари	131
59. Пулатов Я.Э., Пулатова Ш.С., Пулатов Ш.Я. Инновационные технологии орошения сельскохозяйственных культур – основа повышения продуктивности использования водно-земельных ресурсов.....	133
60. Reymbaeva Z.A. Respublikamizda awil-xojaligi ekonomikasindaǵi diyxan xojaliqlariniń ornı hám oni rawajlandiriw	135
61. Saydalieva N.K. Kuzgi bug‘doy ang‘izida bedani ekish muddat va me‘yorlarini tuproq qatlamlarida ildiz va ang‘iz qoldiqlarini to‘plashi.....	138
62. Сайпназаров Г. Изучения сортообразцов инорайонных кормовых культур в засоленных почвах Каракалпакстана.....	141
63. Сайпназаров Г.У., Серимбетов Т.Е. Результаты испытания инорайонных сортов сорго в условиях Каракалпакстана.....	142
64. Salimova H.X. Buxoro viloyati g‘ijduvon tumani tuproqlarining agrokimyoviy xususiyatlariga ko‘ra o‘g‘itlash me‘yorini ishlab chiqish.....	144
65. Сапаева Г. Қишлоқ хўжалиги ривожланишининг минтақавий ўзига хос хусусиятлари (Қорақалпоғистон Республикаси мисолида).....	146
66. Sattorova M. Sug‘oriladigan qumli cho‘l tuproqlarining agrokimyoviy holati. (Jondor tumani misolida).....	148
67. Сейтбаев Р.С., Айтжанов Б.У., Айтжанов У.Е. Кунгабоқарнинг F ₃ дурагай баргларидаги вариацион ўзгарувчанлиги	150
68. Shermatov M.R. Farg‘ona vodiysi agroekotizimlari tangachaqanotli hasharotlarining (insecta: lepidoptera) zoogeografik tarqalish areallari	153
69. Sultanova Z.S., Xaybullaev I.S., Sultanov B.B. Donni qayta ishlashdagi	